UDK 633.11: 631.52

QIMMATLI XO‘JALIK BELGILARIGA EGA YUMSHOQ BUG‘DOY NAV NAMUNALARI

Z.A.Ochilov q.x.f.f.d.
Lalamikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti.
E-mail: zafarochilov827@gmail.com

Annotasiya*. Maqolada yumshoq bug‘doyning qimmatli belgi va xususiyatlarga ega bo‘lgan, yuqori hosilli yangi nav namunalari ustida 2025-yilda olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha taxlillari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Yumshoq bug‘doy, nav, namuna, hosildorlik, 1000 dona don vazni, lalmikorlik, o‘simlik bo‘yi, boshlang‘ich manba.*

Аннотация. *В статье освещен анализ результатов научных исследований, проведенных в 2025 году на новых высокоурожайных сортообразцах мягкой пшеницы с ценными признаками и свойствами.*

Ключевые слова. *Мягкая пшеница, сорт, образец, урожайность, масса 1000 зерен, богарное земледелие, высота растений, исходный материал.*

Abstract. *The article analyzes the results of scientific research conducted in 2025 on new high-yielding varietal samples of bread wheat with valuable traits and properties.*

Keywords. *Bread wheat, variety, sample, yield, weight of 1000 grains, dryland farming, plant height, source material.*

Kirish. Ilmiy tadqiqotlar natijasida qimmatli xo‘jalik belgi va xusiyatlariga ega bug‘doy navlari yillar davomida iqlim o‘zgarishlari, tashqi muhitning noqulay sharoitlari va kasalliklar ta’sirida o‘zining belgi va xususiyatlarini yo‘qotib borishi aniqlangan. Yangi navlarni yaratish ishlarini uzluksiz davom ettirish, nav almashtirishni yillar bo‘yicha bosqichma-bosqich olib borish yuqori hosildorlikni ta’minlashi isbotlangan.

Birlashgan millatlar tashkilotining ma’lumotiga qaraganda, bug‘doy donini ishlab chiqarish jahon miqyosida yetarli darajada emas. Har yili dunyoda 800 milliondan ortiq odam non va non mahsulotlari yetishmasligidan qiynalmoqda.

Donga bo‘lgan ehtiyoj jahon bozorida yildan yilga oshib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar ma’lumotiga ko‘ra, jahon mamlakatlarida istemolga mo‘ljallangan bug‘doy doniga bo‘lgan talab yiliga 1,6-1,8 foiz ortmoqda, olinayotgan hosildorlikni oshirish, yumshoq bug‘doyning serhosil boshlang‘ich manba va navlarini yaratish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biridir [1].

Donli ekinlarning eng muhim belgilaridan biri bu boshoqlash fazasi hisoblanib, bug‘doyning erta pisharligini belgilashda asosiy omil bo‘ladi [2].

Abiotik stresslarga chidamlilik manbalarini fiziologik baholash qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi yuqori mahsuldor, serhosil va chidamli navlarini tanlash va yaratishda seleksiya jarayonida zarur hisoblanadi [4].

Ishlab chiqarish talablariga javob beradigan nav yaratish uchun tanlashni qurg‘oqchilik yillarida ko‘proq o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lishi va lalmikorlikda yuqori hosilli nav yaratish uchun 1000 dona don vazni yuqori bo‘lgan o‘simliklarni tanlash yaxshi natija beradi [3].

Materiallar va metodlar. Ilmiy tadqiqotlar 2025-yil Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonida olib borildi. Tajribalarda 36 ta nav namuna 2 qaytariqda 10 m^2 dan ekildi. Nav namunalarini taqqoslashda andoza nav sifatida «Tezpishar» navidan foydalanildi. Tajribalarni joylashtirish va matematik taxlil qilish B.A.Dospexov (1985) bo‘yicha, tajriba kuzatuvlari, taxlillari sobiq Butunittifoq O‘simlikshunoslik instituti (VIR 1984 y), Mejdunarodny klassifikator SEV roda Triticum L. (1984) hamda ICARDA va DDEITI G‘allaorol ilmiy-tajriba stansiyasi tomonidan (2004-yil) ishlab chiqilgan va qabul qilingan uslubiy qo‘llanmalar asosida olib borildi.

Natija va ularning taxlili. Lalmikor sharoitda yarim intensiv navlar yaxshi natija beradi. Ya’ni har qanday qurg‘oqchil yillarda ham bunday navlardan hosil olsa bo‘ladi. Biz o‘rgangan navlarning aksariyati intensiv tipga ega bo‘lib, o‘simlik bo‘yi 40-50 sm past bo‘lganligidan bu yilgi qurg‘oqchil yilda hosildorligi andoza navdan past bo‘ldi. Lekin tajribada o‘rganilgan andoza «Tezpishar» navida o‘simlik bo‘yi 89,2 sm ni tashkil etdi. ICARDA dan keltirilgan ayrim navlar bu yilgi qurg‘oqchil yilda ham bo‘yi «Tezpishar» navidan yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Bu Gerek (Turkiya) namunasida o‘simlik bo‘yi 96,0 sm, Shark/ F4105 (Turkiya) namunasida 90,5 sm, Poto/Cal (Turkiya) namunasida 89,8 sm ni tashkil etib andoza navdan o‘simlik bo‘yi uzun ekanligi kuzatildi (1-jadval).

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, lalmikor maydonlarda uzun bo‘yli o‘simliklarni tanlab olish maqsadga muvofiqdir. Chunki uzun bo‘yli bug‘doy navlarida ildiz tizimi yaxshi rivojlanganligi uchun qurg‘oqchilik yillarida ham hosil olish mumkin bo‘ladi.

Nav namunalarni boshoqlash muddati taxlil qilinganda andoza navda boshoqlash muddati 4-iyunga to‘g‘ri keldi. Shark (Turkiya) va Poto/Cal (Turkiya) namunalarida 3-iyunga, Gerek (Turkiya) namunasida 7-iyunga, Kirgiz 95/8 (Turkiya) namunasida 7-iyunga, Jarumba (Turkiya) namunasida 9-iyunga boshoqlash muddati to‘g‘ri keldi. Boshqa namunalarda andoza navdan 2 kundan 8 kun keyingacha boshoqlash muddati kuzatildi.

Lalmikorlikda 1000 dona don vazni katta rol o‘ynaydi. Tajribada 1000 dona don vazni eng yuqori Ji5418 (Turkiya) namunasida 42,5 g, Kirgiz 95/8 (Turkiya) namunasida 42,7 g, Jarumba/1 (Turkiya) 44,7 g, Krasnodar (Turkiya) 44,2 g, namunalarda ekanligi taxlil natijalarida aniqlandi. Andoza navda 1000 dona don vazni 43,9 g ni tashkil etdi.

Nav namunalarini muxim qimmatli belgi va xususiyatlarini hisobga olgan holda hosildorlik bo‘yicha taxlil qilganda, andoza «Tezpishar» navida hosildorlik 20,6 s/ga, Gerek (Turkiya) namunasida 22,6 s/ga, Zander-34 (Turkiya) 21,7 s/ga, Kirgiz 95/8 namunasida 26,3 s/ga, Jarumba/L (Turkiya) namunasida 25,1 s/ga, Krasnodar/F (Turkiya) namunasida 23,9 s/ga ni tashkil etdi. Andoza navdan hosildorligi 0,4 dan – 5,7 s/ga gacha yuqori ekanligi kuzatildi.

1-jadval.

Qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha tanlab olingan yumshoq bug‘doy nav namunalari (G‘allaorol-2025 y).

№	Nav namunalar nomi	Kelib chiqishi	O‘ simlik bo‘ yi, (sm)	Boshoqlash muddati, (kun, oy)	1000 dona don vazni, (g)	Hosildorligi, (s/ga)	Andozadan hosil farqi, (±) s/ga
1	Tezpishar (an)	O‘zbekiston	89,2	4.06	43,9	20,6	0,0
2	Gerek	Turkiya	96,0	7.06	40,6	22,6	+2,0
3	Ji5418/M	Turkiya	76,3	7.06	42,5	18,4	-2,2
4	Hbk0935W-24	Turkiya	66,9	7.06	41,5	20,6	0,0
5	Zander-34	Turkiya	67,0	11.06	42,2	21,7	+1,6
6	Ks920709-B	Turkiya	76,9	8.06	40,6	19,8	-0,8
7	Kirgiz 95/8	Turkiya	66,1	7.06	42,7	26,3	+5,7
8	Gun 91/3	Turkiya	74,3	6.06	40,9	20,6	0,0
9	Jarumba/L	Turkiya	68,6	9.06	44,7	25,1	+4,5
10	MV14-2000	Turkiya	60,1	12.06	39,9	20,2	-0,4
11	Krasnodar/F	Turkiya	72,4	11.06	44,2	23,9	+3,3
12	Krasnodar/	Turkiya	69,2	8.06	43,9	20,6	0,0
13	Krasnodar	Turkiya	71,5	7.06	42,6	21,0	+0,4
14	Shark/F4105	Turkiya	90,5	3.06	38,3	20,0	-0,6
15	Poto/Cal	Turkiya	89,8	3.06	39,3	18,9	-1,7

NSR 05 = 0,9 s/ga

Xulosa. Taxlil natijalaridan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki o‘simlik bo‘yi, 1000 dona don vazni va boshqa qimmatli xo‘jalik belgilari jihatidan hosildorligi

andoza navdan yuqori bo‘lgan Gerek, Zander-34, Kirgiz 95/8, Jarumba/L, Krasnodar/F, Krasnodar (Turkiya) nav namunalari tanlab olindi va yumshoq bug‘doy seleksiyasi labaratoriyasiga seleksiya jarayonida boshlang‘ich manba sifatida foydalanish uchun taqdim etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Amanov. Bug‘doy seleksiyasi va urug‘chiligi.Toshkent 2019. 3-bet.
2. Egamov I.A., Qodirova M. Seleksiya jarayonlarida yumshoq bug‘doyning ikki fasilli (duvarak) namunalarini baholash hamda tanlash natijalari. Agro ilim jurnali 2015-y, 5-son, 34- bet.
3. Yusupov B.A., Nurbekov O‘.A. Respublikaning lalmikor erlari uchun yumshoq bug‘doy seleksiyasi. G‘allachilikning ilmiy-amaliy yechimlari. Ilmiy to‘plam. G‘allaorol-2007. 38-40- betlar.
4. Очилов З.А.,Покровская М.Н. Засухо-и жароустойчивость сортообразцов мягкой пшеницы на богаре. Аграрная наука. ISSN 0869-8155 11-12, 2020. 60-62 С.